

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINING MA’NAVIY VA AXLOQIY QARASHLARI XUSUSIDA

Boliboyeva Tursunoy Sirojiddin qizi,
Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: **Farhod Ibrohimov**
TVCHDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada yoshlarning axloq tufayli jamiyatda tutgan o‘rni, hozirgi globallashuv davrida yosh avlodning axloqiy qarashlari, bugungi globallashuv sharoitida axloq va ma’naviyatning o‘rni, “Ommaviy madaniyat” va bu madaniyatga qarshi turishdagi axloq masalasi, komil insonni tarbiyalashda axloqning o‘rni haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar axloqi, ommaviy madaniyat, komil inson, islomiy axloq, milliy tarbiya, umuminsoniy ma’naviyat, axloq, ma’naviyat, xulq.

Mustaqil O‘zbekistonimizning kelajagi ko‘p jihatdan barkamol, salohiyatli yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda yoshlarimizning tarbiyasi bilan shug‘ullanish juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarbiyaning maqsadi har jihatdan barkamol shaxslarni shakllantirishdan iborat. Prezidentimiz aytganlaridek yoshlarning tarbiyasiga alohida e‘tibor berish lozim, chunki kelajak yoshlarning qo‘lida, shuning uchun ham yoshlarning tarbiyasi bilan alohida shug‘ullanish darkor.

“Komil inson deganda biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz”, -deb ta’riflaydi”[1]. Yoshlarni erkin shaxs sifatida tarbiyalash uchun eng avvalo ularning xulq-atvoriga alohida e‘tibor berish kerak. Tarbiya, xulq-atvor, axloq eng birinchi o‘rinda oilada shakllanadi. Ota-onaning farzandga berayotgan tarbiyasi, oilaning muhiti, axloqi, ijtimoiy kelib chiqishi barchasi borib axloqqa taqaladi. Oilada muhit yaxshi bo‘lmasa farzandning axloqi, tarbiyasi buziladi. Shu o‘rinda mutafakkir Abdulla Avloniy aytganidek “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo saodat-yo falokat masalasidir”-degan fikri yodimga keldi[2]. Rostan ham tarbiya biz yoshlar uchun hayot mamot masalasidir. Har bir shaxs jamiyatda o‘z o‘rnini topish uchun tarbiyasi, axloqli bo‘lishi kerak. Agar yoshlar axloqsiz bo‘lsa bu hayotda o‘rnini topa olmaydi. Axloq bu insonlarni yaxshilikga chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Axloqi bor yoshlar har jabhada hammadan ustun bo‘ladi. Axloq insonning go‘zal xulqlaridan biridir. Shu o‘rinda xulq atamasiga ham qisqacha ta’rif berib o‘tmoqchiman. Xulq-axloqshunoslikning asosiy tushunchalaridan biridir. Xulq insonning fe‘l atvori bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, kishining axloqiylik doirasida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda yoshlarning axloqi bilan shug‘ullanish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimizda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun ham qabul qilingan[3]. Ushbu qonun qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan, senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma’qullangan, 2016-yil 9-sentabrda kuchga kirgan bo‘lib, 4 ta bob, 33 ta moddadan iborat. Mazkur qonun yoshlar masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, asosan yoshlar bandligini ta’minlash, yoshlar uchun yaratib berilayotgan imtiyozlar, huquqlar, erkinliklar haqida gap boradi. Yoshlarning axloqiga qaratilyotgan ishlarni yanada kuchaytirishimiz lozim. Yoshlarni turli xil buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrash lozim. Bunday salbiy kayfiyatlarni bartaraf etishda ota-ona, mahalla, maktab, eng avvalo yoshlarning o‘zi faol

bo'lishi darkor. Vatanimizning kelajagi biz yoshlarning qo'lida, biz yoshlarni buyuk ishlar kutmoqda. Vatanimizning yuksak ishonchi va umidini to'la oqlash, unga munosib bo'lish dunyodagi eng ulug' baxtdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida "ommaviy madaniyatga" quyidagicha ta'rif beradi. "Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzulqik va zo'ravonlik, individualizm, egosenterizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi"[4]. Bugungi kunda "ommaviy madaniyat" tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlarning ongiga o'tkazayotgan ta'siri, yoshlarning mana shu ta'sirga tezda tushib qolayotganligi juda ham achinarli holatdir.

"Ommaviy madaniyat" orqali yurtimizga kirib kelayotgan turli xil zo'ravonlik g'oyalari, norkabiznes, odam savdosi kabi milliy mentalitetimizga putur yetkazuvchi g'oyalar hozirgi vaqtda barchani o'yg'a cho'mdirmoqda. Mana shunday yot g'oyalarni yurtimizga kirib kelishini oldini olishda har bir yosh avlod shijoat bilan harakat qilishi lozim. Yoshlarimizning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun turli ko'rik tanlovlar o'tkazish kerak. Kitob mutaolaasi bilan shug'ullanishi darkor. Prezidentimiz iborasi bilan aytganda: "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir"[5].

Prezidentimiz aytganlaridek, yoshlarimizning tarbiyasi, bilim olish salohiyati bilan alohida shug'ullanish kerak. Bilimli yoshlar har jabhada mustaqil fikrga ega bo'ladi. Mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlar esa hech qachon "ommaviy madaniyat"ning ta'sir doirasiga tushib qolmaydi. Islomiy odob eng go'zal fazilatlarimizdan biri hisoblanadi. Abu Hurayra roziyallohu anhudan qilingan bir hadisda: "Sunnatga muvofiq qilingan oz amal bid'at aralashgan ko'p amaldan yaxshidir"- deyiladi. Har qanday farzand ma'lum bir muhitda, ma'lum bir oilada dunyoga keladi. Farzandning kelajakda kim bo'lishi, bevosita farzandga berilayotgan islomiy tarbiya bilan bog'liqdir. Farzandlarga berilayotgan tarbiya eng avvalo oiladan boshlanadi.

Ma'naviy jihatdan yuksak ota-onalarning farzandi ham odobli, tarbiyali bo'ladi. Yaxshi tarbiya, go'zal xulq, insonning ko'rki hisoblanadi. Musulmon kishilarning insonlararo munosabati, muomala munosabati, hayot tarzi, yurish-turishi, yeb ichishi, kiyinishi hammasi borib islomiy axloqqa taqaladi. Hamma narsaning ham o'z odobi bor. Shu o'rinda kiyinish odobiga to'xtab o'tmoqchiman. Kiyim insonning ko'rki hisoblanadi. "Kiyim kiyilayotganda o'ng tomondan kiyiladi. Kimki kiyimini maqtanish, ko'z-ko'z qilish uchun kiya, bu odob doirasiga to'g'ri kelmaydi, agar maqtanish, kibrlanish uchun kiygan bo'lsa qiyomat kuni Alloh u kimsaga nazar solmaydi"[6]. Birorta yangi libos kiyganimizda Allohga shukrona aytishimiz kerak. Endi salomlashish odobi haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Salom berish har bir mo'min musulmon uchun farzdir. Salom Allohning ismlaridan biri hisoblanadi.

Har biri kishi kim bilandir suhbatlashmoqchi bo'lsa avvalo gapni salomdan boshlashi kerak. Agar gapni salom bilan boshlamasa u kishiga javob bermaslik kerak. Musulmon kishilardan yigirma odamga salom berilsa, salom bergan mo'min kishi jannatga kirishga haqli bo'ladi. Yoshlarning odob-axloq masalasi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlik inson umridagi eng nozik davr hisoblanadi. "Yoshlik odoblaridan eng muhimi ota-onaga yaxshilik qilishdir".[7] Ota-onaga yaxshilik qilish Qur'oni Karim oyatlarida ham keltirilgan. Farzand doimo ota-onasining xurmatini joyiga qo'yishi, ota-onasiga gap qaytarmasligi, ota-onasi nima deb aytsa shuni bajarishi lozim.

Ota-ona har bir inson uchun juda e'zozli, mo'tabar, alohida xurmatga loyiq kishilar sanaladi. Ota yoki ona farzandiga ish buyurganda farzand ota-onasiga "uff" deb yuzini teskari qilmasligi kerak. Ota-onasining amrini bajarish ham farzandning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan farzand doimo ota-onasining aytganlarini qilishi zarur. "Milliy tarbiya - bu millatni, tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyati, merosni, qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'analarni o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglash subyektidir"[8]. Milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishi bu milliylikga asoslanganligi bilan qiyoslanadi. Milliy tarbiya qadriyatlarda, an'analarda, urf-odatlarda, vatanparvarlikda, insoniylikda namoyon bo'ladi. Milliy tarbiyamizning yana bir muhim yo'nalishi ota-ona, qarindosh-urug', o'zga millatlar va elatlar vakillarining hurmatini joyiga qo'yish kabilarni o'z ichiga oladi. "Umuminsoniy ma'naviyat-butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy boyliklardir"[8, 84]. Umuminsoniy ma'naviyat deganda uzoq o'tmishda insonlar tomonidan yaratilgan bugungi kunda esa, ma'naviy jihatdan juda ham qadrlil bo'lgan, insoniyat ehtiyoji uchun xizmat qiladigan ma'naviy boylik tushuniladi. Xulosa qilib aytganda, Yoshlarga axloq qoidalarini singdirish bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Axloqi go'zal yoshlarni tarbiyalash har bir ota-onaning muqaddas burchi hisoblanadi. Tarbiya oilada boshlanar ekan, unda sog'lom ma'naviy muhit shakllanishiga har birimiz mas'ulligimizni unutmasligimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: "O'zbekiston", 1998. – B. 2.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1998. – B. 34.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2016. – B. 117.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – B. 27.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Toshkent: "Hilol-nashr", 2021. – B. 155.
6. Karimov B., Norboyev O'., Ziyayev F. "Ma'naviyat asoslari". - Toshkent: 2021. – B. 82; 84.
7. Karimov D. (2022) O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasida diniy-axloqiy bilimlarning o'rni / Interdisciplinary research: scientific horizons and perspectives III International Scientific and Theoretical Conference, -p. 80-81.
8. Umidbek Adambayev. (2021) Faith – the conception of belief and steps to develop it / Actual problems of modern science, education and training. – p. 96.
9. Umid Adambayev. (2021). Milliy o'zlikni anglash millat taraqqiyotining poydevori // Scientific progress. – pp. 1858-1862.
10. Кандов Б.М. (2022) Роль этнокультуры в воспитании молодежи Узбекистана в духе национальной идеологии. Conference Zone. – pp. 77-80.
11. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). Socio-legal foundations for the development of a civic position among the youth of a renewed Uzbekistan. International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – pp. 185-188.
12. Kandov B.M. (2022). The Role of Religious and Moral Values in Strengthening the Spiritual Development of Society and Individuals // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 88-92.

13. Kandov B. (2022) Current Issues of Harmony of Human and National Values In the Formation of Civil Station of the Youth of New Uzbekistan. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication* 1 (8), 30-33.
14. Kandov B.M. Ikramov R.A. (2022) The Role of Ecological Values in the Private Perspective in the Process of Globalization // *European journal of life safety and stability (EJLSS)*. – pp. 68-73.
15. Адамбаев Умидбек. (2022) Ишонч-эътиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири / *Scientific progress*. – pp. 348-351.
16. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев. (2022) Экологик маданият ва уни шакллантириш // *Academic research in educational sciences*. – pp. 125-134.
17. Umidbek Xaitbayevich Adambayev. (2022) Navro'z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati. *Academic research in educational sciences*. – pp. 175-177.
18. Умидбек Адамбаев. (2022) Ишонч-эътиқодни шакллантиришда аргументлашнинг ўрни // *Academic research in educational sciences*. – p. 898.
19. Баходир Мирзаевич Қандов. (2021) The importance of forming an active civic position among young people. *Актуальные научные исследования в современном мире*. – С. 102-106.
20. Қандов Б.М. (2021). Philosophical and Legal Problems of Women's Rights And Freedoms in the Process of Globalization // *Актуальные научные исследования в современном мире*. – pp. 65-70.
21. Bakhodir Qandov. (2020) Human Rights are a Social Phenomenon: The Principles of Globalization and Personal Liberty. – P. 488-495.
22. Kandov B.M. (2021). Problems of Global Ecology and Socio-Natural Environment // *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*. – pp. 182-186.
23. Ikramov R. Kandov B.M. (2021). The Role of Education and Upbringing in the Formation of a Harmonious Personality in the Process of Globalization // *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*. – pp. 33-37.
24. Togayev Shavkat Hurramovich. Kandov Bakhodir Mirzayevich. (2021) The role of education in the development of environmental consciousness of a person. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1129-1133.
25. Bakhodir Qandov, Hamza Juraev. (2020) Creation of a New System of Education and Education in the Bukhara People's Republic // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*. – pp. 496-501.
26. **Оғабек Султанов (2021). Талаба-ёшларнинг ахлоқий бурчини шакллантириш – комил инсон тарбиясининг муҳим омили / *Academic Research in Educational Sciences*, -p. 315-320.**
27. Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. Factors in the Development of Civil Society Institutions in the New Uzbekistan // *International Journal of Development and Public Policy* Vol. 2 No. 3 (2022). – pp. 84-91.
28. Sultanov Og'abek. The essence of the obligation in the views of eastern thinkers. *Academicia Globe: Inderscience Research*. –p. 39-42.
29. Ikramov Ravshan Aktamovich, Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. (2020) Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan. *EPR International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*. – pp.507-510.
30. Adambaev U. (2021). Confidence-nonverbal methods of argumentation in the formation of the verb // *Экономика и социум*. – С.18-21.